



O'ZBEKISTON SSRDA "SHAKLAN MILLIY VA MAZMUNAN SOTSIALISTIK" MADANIY INQILOB JARAYONLARI

Raxmonazarova Adolat

Namangan Davlat Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix mutaxassisligi 2- kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston SSRda "shaklan milliy va mazmunan sotsialistik" tamoyili asosida kechgan madaniy inqilob jarayonlari tahlil qilinadi. Xususan, alifbo islohotlari (arab yozuvidan lotinga, keyin kirillga o'tish), adabiyotda sotsializmning ustuvor yo'nalishga aylanishi, san'at va teatrning ideologik vazifalarga bo'ysundirilishi, milliy shaklning saqlangani holda sotsialistik mazmun bilan "to'ldirilishi" jarayonlari yoritiladi. Tadqiqotda "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik" tamoyili ostida amalga oshirilgan islohotlar va ularning mohiyati tarixiy manbalar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston SSR, madaniy inqilob, sotsialistik realism, alifbo islohoti, adabiyot, tasviriy san'at, teatr, senzura, savodxonlik, milliy shakl.

Madaniyat tushunchasi insoniyat ma'naviy hayoti sohasini qamrab oluvchi barcha sohalarga nisbatan ishlatiladi. Sovet davrida ko'plab olimlar "ma'naviy madaniyat" tushunchasini asosan soddalashtirilgan tarzda sharhlagan. Ularning yondashuvida moddiy ishlab chiqarish moddiy madaniyatning poydevori va birlamchi omili sifatida qo'yilgan, ma'naviy ishlab chiqarish esa (g'oya, hissiyot, nazariy qarashlar) ikkilamchi jarayon darajasida ko'rilgan. Ijodkorlik, g'oyalar va nazariy fikrlarning kelib chiqishi ham mehnat faoliyati hamda ishlab chiqarish amaliyotining bevosita mahsuli sifatida talqin etilgan. SSSR siyosatida internatsionallashtirish yo'nalishi va "yagona sovet xalqi madaniyati"ni barpo etish g'oyasi milliy madaniyatlar taraqqiyotiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu siyosat ko'p asrlilik an'ana va urf-odatlar, milliy o'ziga xosliklarning zaiflashuviga, natijada madaniy xilma-xillikning qisqarishiga olib keldi. Shu bilan birga, madaniy qatlamlar o'zaro aralashib, millatlarni yagona qolipga solish jarayonining mafkuraviy asosi shakllandi. Kommunistik partiya ushbu yo'nalishning bosh tashabbuskori bo'lib maydonga chiqdi. Mazkur mafkura sovet hokimiyatining dastlabki yillaridan to oxirigacha davom etgan "madaniy inqilob" siyosatida o'z ifodasini topdi. "Madaniy inqilob" atamasi ilk bor V. I. Lenin tomonidan ilmiy-siyosiy muomalaga kiritilib, sovet davlatining uch asosiy strategik vazifasidan biri sifatida belgilangan edi. Ushbu siyosatning bosh maqsadlari sifatida aholi uchun sotsialistik ta'lim tizimini shakllantirish, yangi sotsialistik ziyolilar qatlamini yaratish hamda sotsialistik adabiyot va san'atning institutsional poydevorini barpo etish vazifalari ko'rsatildi. "Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik" ning mazmuni Sovet Ittifoqi milliy respublikalari uchun madaniyat siyosatining poydevorini belgilagan. O'zbekiston SSRda bu tamoyil 1920-yillarning oxiridan 1980-yillar oxirigacha adabiyot, san'at, teatr, til siyosati va ta'lim tizimini yo'naltirdi va quyidagi islohotlar amalga oshirildi:

- savodsizlikni tugatish maqsadida xalq tilida maktablar tashkil etish su r'ati yanada kuchaytirildi;

Date: 21 May 2026

- madaniyatning tarkibiy qism i hisoblangan dinga qarshi ayovsiz kurash boshlandi;
 - 20-30- yillar respublika madaniy hayotidagi milliy adabiyot va san'atni saqlab qolish, uning ilg'or an'alarini tiklash uchun harakat avj oldi. Shu bilan birga adabiy-badiiy jarayonni hukmron sinf manfaatlariga bo'ysundirishga yordam beruvchi ikkinchi guruh ham paydo bo'ldiki, ular millat qahramonlarini qatag'on qilishda jonbozlik ko'rsatdilar;

- 40-yillardan 50-yillargacha davom etgan siyosiy qatag'onlar O'zbekiston madaniy hayoti va taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi va bu qatag'onlar asosan ilm -fan va madaniyat arboblari qaratilgan edi;

-bir qator jurnallar, jumladan, "Sharq yulduzi" va "Zvezda Vostoka" jurnallari tahririyatiga jiddiy ayblar qo'yildi;

- davlat drama teatri, opera va balet teatri, qo'g'irchoq va yosh tomoshabinlar teatrlari shakllandi. Repertuar klassik doston va ertak motivlarining zamonaviy sotsial qarama-qarshiliklarga moslashtirilishi, targ'ibot va ma'rifiy vazifalarning kuchayishi bilan ajralib turdi;

-realistik tasvir, mehnat va ilm-fan qahramonlari ikonografiyasi shakllandi, milliy bezak va kiyim, tarixiy me'moriy fonlar "shakl"ni, ijtimoiy-sinfii mazmun esa "mazmun"ni belgiladi. Respublika ko'rgazmalari va buyurtma tizimi yo'lga qo'yildi.

Xulosa qilib aytganda, bu davr O'zbekiston madaniy taraqqiyotini boshdan kechirgan bir bosqich sifatida tarix sahifasidan munosib joy oldi. Fan, texnika, adabiyot va san'at hamda maorif sohalarida muayyan siljishlar bo'lib o'tdi, ularning moddiy-texnika bazasi ancha mustahkamlandi. 1991-yil 1-sentabr kuni O'zbekistonning mustaqil deb e'lon qilinishi, Milliy Istiqlolga erishuvimiz xalqimizning ma'naviyat va madaniyatini yanada yuksaltirish imkoniyatini berdi. Bu shunday bir ne'matki, ajdodlar tomonidan yaratilgan madaniy-ma'naviy merosga xalq milliy ruhiyati orqali nazar tashlashga, uning sarchashmalarini qalban his qila bilish, xalqona milliy va diniy e'tiqodlarga chuqur ehtirom ila qarash imkoniyatini yaratib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jahonov A. O'zbek yozuvi tarixi (XX asr). Toshkent: Fan, 1972.
2. Mamarasulov S. O'zbek tasviriy san'ati tarixi. Toshkent: G'afur G'ulom, 1983.
3. Saidov B. O'zbek teatri tarixi. Toshkent: San'at, 1987.
4. Tomoff K. Creative Union: The Professional Organization of Soviet Composers. CornellUniversityPress,2006.
5. Usmon Qoraboyev., G'ayrat Soatov. O'zbekiston madaniyati Toshkent: Tafakkur bo'stoni-2011

